Annotatsiya: Ushbu maqolada kreativ pedagogika va mantiqiy fikrlash kompetentligining o'zaro bog'liqligi nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Kreativ pedagogika zamonaviy ta'lim jarayonida talabalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish, erkin va noodatij fikrlashni shakllantirishga xizmat qiluvchi muhim ilmiy yo'nalish sifatida talqin etiladi. Shu bilan birga, mantiqiy fikrlash shaxsning dalillarni tahlil qilish, xulosalar chiqarish va asosli qarorlar qabul qilish qobiliyati sifatida ko'riladi. Maqolada J. P. Guilford, E. P. Torrance, J. Dewey, L. S. Vigotskiy kabi olimlarning g'oyalari, shuningdek, o'zbek tadqiqotchilari A. Abduqodirov va M. O'rinboyeva ishlarida ilgari surilgan qarashlar o'rganilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, kreativ pedagogika mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda samarali metodlardan biri bo'lib, u talabalarda muammoli vaziyatlarga noodatij yondashuv, tahlilij qaror qabul qilish va g'oyalarni amaliyotda tatbiq etish kompetentligini shakllantiradi.

Kalit so'zlar: kreativ pedagogika, mantiqiy fikrlash, kompetentlik, ijodiy tafakkur, pedagogik metodlar, ta'lim samara-dorligi.

Abstract: This article analyzes the interrelation between creative pedagogy and logical thinking competence from both theoretical and practical perspectives. Creative pedagogy is considered an important scientific field that fosters students' creative potential, encourages independent thinking, and promotes unconventional approaches to problem-solving. Logical thinking, in turn, is defined as an individual's ability to analyze facts, identify cause-and-effect relationships, and draw reasoned conclusions. The paper explores the ideas of J. P. Guilford, E. P. Torrance, J. Dewey, L. S. Vygotsky, as well as the contributions of Uzbek scholars such as A. Abduqodirov and M. Urinboeva. The findings indicate that creative pedagogy serves as an effective means for enhancing logical thinking skills, helping students develop analytical decision-making strategies, cognitive flexibility, and the ability to apply innovative ideas in practice.

Key words: creative pedagogy, logical thinking, competence, creative cognition, pedagogical methods, educational effectiveness.

Аннотация: В статье рассматривается взаимосвязь между креативной педагогией и компетентностью логического мышления с теоретической и практической точек зрения. Креативная педагогика трактуется как важное научное направление, способствующее развитию творческого потенциала студентов, формированию свободного и нестандартного мышления. Логическое мышление определяется как способность личности анализировать факты, выявлять причинно-следственные связи и делать обоснованные выводы. В работе проанализированы идеи таких ученых, как Дж. П. Гилфорд, Э. П. Торранс, Дж. Дьюи, Л. С. Выготский, а также взгляды узбекских исследователей А. Абдукодирова и М. Уринбаевой. Полученные результаты показывают, что креативная педагогика является эффективным средством развития логического мышления студентов, способствуя формированию у них аналитических стратегий, гибкости мышления и способности применять идеи на практике.

Ключевые слова: креативная педагогика, логическое мышление, компетентность, творческое мышление, педагогические методы, эффективность образования.

KIRISH

Kreativ pedagogika zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchi va talabalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish, ularni yangicha yondashuvlar asosida bilim olish hamda bilimlarni amaliyotga tatbiq etishga yo'naltiruvchi muhim ilmiy yo'nalish hisoblanadi. Ushbu fan o'qitish jarayonida nafaqat standart bilimlar tizimini o'zlashtirish, balki o'quvchini erkin fikrlashga, yangicha qarashlarni ilgari surishga va noodatij yechimlar ishlab chiqishga rag'batlantiradi. J. P. Guilford (1967) o'zining ijodiy fikrlash modeli orqali kreativ yondashuvning to'rtta asosiy komponentini – ravonlik (fluency), moslashuvchanlik (flexibility), originallik (originality) va tafsilotlilik (elaboration)ni ajratib ko'rsatgan. Shuningdek, E. P. Torrance (1974) ijodiy rivojlanish jarayonida ochiq tipdagi

topshiriqlar va muammoli vaziyatlarning ta'lim samaradorligiga ijobiy ta'sirini ilmiy asoslab bergan. O'zbekistonda esa A. Abduqodirov, M. O'rinboeva kabi olimlar ta'lim jarayonida kreativ pedagogik metodlardan foydalanish talabalar tafakkurini faollashtiruvchi omil ekanligini ta'kidlab kelmoqda.

Mantiqiy fikrlash – shaxsning ma'lumotlarni izchil tahlil qilish, dalillarni baholash, sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash va asosli xulosalar chiqarish qobiliyatidir. Aristotelning “Organon” asarlarida deduktiv va induktiv tafakkur mantiqiy xulosaga kelishning asosiy usullari sifatida talqin qilingan. J. Dewey (1933) esa reflektiv fikrlashni inson tafakkurining eng muhim bosqichi sifatida ko'rib, uni muammoli vaziyatlarda oqilona qarorlar qabul qilish vositasi deb bilgan. L. S. Vygotskiy (1982) mantiqiy fikrlashning rivojlanishi uchun ijtimoiy muhit va madaniy vositalarning hal qiluvchi rolini alohida ta'kidlaydi. Zamonaviy tadqiqotlar mantiqiy fikrlash kompetentligini talabalarining analitik fikrlash, qaror qabul qilish strategiyalari va axborot filtrlash qobiliyatlari bilan bevosita bog'laydi.

Kreativ pedagogika va mantiqiy fikrlash o'rtasidagi uzviy bog'liqlik ularning bir-birini to'ldiruvchi tabiatida namoyon bo'ladi. Kreativ yondashuv mantiqiy tahlil jarayoniga yangicha qarashlar olib kiradi, noodatiy g'oyalarni shakllantirishga imkon beradi va tafakkur moslashuvchanligini oshiradi. Mantiqiy fikrlash esa yaratilgan ijodiy g'oyalarni tizimlashtirish, asoslash va amaliyotga tatbiq etish jarayonida qat'iy mantiqiy mezonlarni ta'minlaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kreativ pedagogika va mantiqiy fikrlashning o'zaro bog'liqligini tadqiq etishda xalqaro hamda mahalliy ilmiy adabiyotlarda ko'plab yondashuvlar shakllangan. Avvalo, g'arb olimlarining izlanishlari ushbu masalaga nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi. J. P. Guilford (1967) tomonidan ishlab chiqilgan “Intellekt tuzilishi” modeli kreativ tafakkurning psixologik asoslarini ochib bergan bo'lib, unda ijodkorlikning ravonlik, moslashuvchanlik, originallik va tafsilotlilik kabi komponentlari aniqlangan. Bu yondashuv ta'lim jarayonida kreativ pedagogikaning nazariy poydevorini belgilab berdi. E. P. Torrance (1974) esa ijodiy rivojlanishni o'ichash va rivojlantirish metodikalarini taklif qilib, kreativlikni ta'lim jarayonida qo'llashning samaradorligini ilmiy asoslab bergan.

Mantiqiy fikrlash bo'yicha esa Aristotelning “Organon” asarlarida deduktiv va induktiv tafakkur orqali xulosa chiqarish tamoyillari ilk bor tizimli ravishda bayon qilingan. Keyinchalik J. Devey (1933) reflektiv fikrlash nazariyasi orqali insonning muammoli vaziyatlarda oqilona qaror qabul qilish jarayonini tahlil qilib, uni ta'limda qo'llash zarurligini asoslab berdi. L. S. Vygotskiy (1982) esa mantiqiy tafakkur rivojlanishida ijtimoiy muhit va madaniy vositalarning hal qiluvchi rolini alohida ta'kidlagan. Ushbu ilmiy qarashlar mantiqiy fikrlashni o'rgatish jarayonida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqot, hamkorlik va madaniy kontekstning ahamiyatini ochib beradi. So'nggi o'n yilliklarda xorijiy tadqiqotlar ham kreativlik va mantiqiy fikrlashni integratsiyalashga qaratilgan. Masalan, Sternberg va Lubart (2018) o'zlarining “Investment Theory of Creativity” konsepsiyasida ijodiy va mantiqiy tafakkur uyg'unligini shaxsiy intellektual resurslar hamda ijtimoiy muhit omillari bilan izohlaydi. Shuningdek, Mayer (2020) muammoli vaziyatlarni hal qilishda mantiqiy va ijodiy fikrlash uyg'unligini ta'limiy natijalarning muhim ko'rsatkichi sifatida qayd etgan.

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda kreativ pedagogika va mantiqiy fikrlash bo'yicha qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. A. Abduqodirov (2015) kreativ pedagogikani innovatsion ta'lim tizimi sifatida talqin etib, uni talabalarining intellektual-ijodiy salohiyatini faollashtirishga qaratilgan metodik yondashuv sifatida ko'rsatgan. M. O'rinboeva (2019) esa kreativ metodlardan foydalanish talabalarida mustaqil va mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali ekanligini ilmiy asoslab bergan. Shuningdek, S. Raxmonqulov (2021) va G. Normurodova (2022) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda kreativ pedagogika asosida o'qitishning talabalarida tanqidiy va mantiqiy fikrlashni kuchaytirishdagi ahamiyati yoritilgan.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kreativ pedagogika va mantiqiy fikrlash alohida yo'nalish sifatida ko'plab tadqiqotlarda o'rganilgan bo'lsa-da, ularning o'zaro uzviy bog'liqligi hali to'liq ochib berilmagan ilmiy muammo sifatida saqlanib qolmoqda. Xususan, mantiqiy fikrlash kompetentligini rivojlantirishda kreativ pedagogikaning metodik asoslari, o'quv jarayoniga integratsiya qilish mexanizmlari hamda ularning samaradorligini eksperimental jihatdan isbotlash masalalari dolzarbdir. Shu bois ushbu maqolada kreativ pedagogika va mantiqiy fikrlashning o'zaro uyg'unligini o'rganish, ularning nazariy asoslarini chuqurlashtirish va amaliy yo'nalishlarini takomillashtirish asosiy vazifa sifatida belgilangan. Kreativ pedagogika tushunchasi XX asrning ikkinchi yarmida g'arb pedagogikasida shakllana boshlagan. Bu yo'nalishning ilmiy asoslari ijodiy tafakkur nazariyalariga hamda psixologiya va pedagogikaning integratsion tadqiqotlariga tayanadi.

J. P. Guilford (1967) o'zining “Intellekt tuzilishi” modelida tafakkur faoliyatining ijodiy jihatlarini alohida ilmiy tahlil qilgan bo'lsa, E. P. Torrance (1974) ta'lim jarayonida kreativlikni rivojlantirishga doir diagnostika va metodikalarni ishlab chiqqan. Kreativ pedagogikaning maqsadi – ta'lim oluvchilarda yangicha fikrlash, muammolarni noodatiy hal etish, mavjud bilimlarni yangicha sharoitga moslashtirish qobiliyatlarini shakllantirishdan iborat. Uning predmeti esa ta'lim jarayonida ijodiy faoliyatni rivojlantirishga xizmat qiluvchi metod, shakl va vositalarni



o'rganish hamda ularni amaliyotga tatbiq etishdir. O'zbekiston olimlaridan A. Abduqodirov (2015) kreativ pedagogikani "o'quvchi va talabaning intellektual-ijodiy salohiyatini faollashtirishga qaratilgan innovatsion ta'lim tizimi" sifatida ta'riflagan.

Mantiq (yunoncha *logike*, *logos* – "so'z", "tafakkur", "qonun") qadimdan inson tafakkurining to'g'ri va izchil ishlash qonuniyatlarini o'rganuvchi fan sifatida shakllangan. Mantiq ilmining asoschisi sifatida Aristotel (miloddan avvalgi IV asr) e'tirof etilib, u "Organon" asarlari to'plamida deduktiv va induktiv fikrlash usullarini tizimlashtirgan. Keyinchalik Forobiy va Ibn Sino kabi sharq mutafakkirlari mantiqni tafakkur madaniyati va ilmiy izlanish metodologiyasi sifatida rivojlantirganlar. O'rta asrlarda mantiq ilmi nafaqat falsafa, balki huquq, tibbiyot, tilshunoslik va pedagogikada ham asosiy bilim sohalaridan biri sifatida qo'llanilgan. Zamonaviy davrda esa mantiq nafaqat an'anaviy formal mantiq doirasida, balki matematik, simvolik va algoritmik mantiq kabi yo'nalishlarda ham rivojlanmoqda. Mantiqiy fikrlash – bu insonning axborot va hodisalarni izchil tahlil qilish, ular orasidagi sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash, umumlashtirish hamda asosli xulosalar chiqarish qobiliyatidir. J. Devey (1933) uni "muammoli vaziyatlarda oqilona qaror qabul qilish jarayoni" sifatida izohlaydi. L. S. Vigotskiy (1982) esa mantiqiy fikrlashni shaxsning kognitiv rivojlanishidagi yuqori bosqich sifatida talqin qilib, uning ijtimoiy muhit bilan chambarchas bog'liqligini ta'kidlaydi. Zamonaviy tadqiqotlarda mantiqiy fikrlash kompetentligi talabalarning tahlil fikrlash, dalillarni baholash, alternativ yechimlarni solishtirish va ularni mantiqiy asoslash ko'nikmalari bilan uzviy bog'liq sifatida qaraladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Kreativ pedagogika o'qitish jarayonini faqat bilim berishga emas, balki ijodiy, tahliliy va tanqidiy tafakkurni rivojlantirishga yo'naltiradi. Ushbu yondashuvda tanlangan metodlar nafaqat talabalarning bilim darajasini, balki ularning mustaqil va tizimli fikrlash qobiliyatini ham shakllantiradi. Quyida talabalarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishga samarali ta'sir ko'rsatadigan bir nechta metodlar tahlil qilinadi.

Sokratik suhbat metodi. Sokratik suhbat – qadimiy falsafiy yondashuv bo'lib, unda o'qituvchi talabaga ketma-ket, chuqurlashib boruvchi savollar beradi. Bu savollar oddiy faktlarni aniqlashdan tortib, murakkab tushunchalarni tahlil qilishgacha boradi. Kreativ pedagogika doirasidagi ahamiyati: ushbu metod talabalarda fikrlar orasidagi mantiqiy bog'lanishlarni aniqlash, qaror qabul qilishning asoslarini tushunish va o'z fikrini dalillar bilan asoslash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Natija: talaba o'z fikrlarini mantiqiy zanjirda ifodalashni, noto'g'ri yoki yuzaki fikrlardan qochishni o'rganadi.

Muammoni teskari yechish metodi (Reverse Problem Solving)

Bu metodda talabaga tayyor natija beriladi va undan shu natijaga olib kelgan mantiqiy jarayonni teskari tartibda aniqlash talab qilinadi.

Kreativ pedagogika doirasidagi ahamiyati: talaba tayyor javobdan kelib chiqib, orqaga qarab mulohaza yuritadi. Bu jarayon sabab-oqibat tahlilini yanada chuqurlashtiradi va noan'anaviy fikrlashni rag'batlantiradi.

Natija: talaba mantiqiy tafakkur zanjirini teskari yo'nalishda ham qurish qobiliyatiga ega bo'ladi, bu esa murakkab muammolarni hal qilishda moslashuvchanlikni oshiradi.

Ushbu tadqiqotning metodologik asoslari zamonaviy pedagogika nazariyalari, kreativlik psixologiyasi hamda mantiqiy fikrlash kompetentligini rivojlantirishga oid konseptual yondashuvlarga tayangan holda shakllantirildi. Tadqiqot jarayonida kreativ pedagogikaning nazariy asoslari, uning talabalarning fikrlash faoliyatiga ta'siri va mantiqiy tafakkur ko'nikmalarini shakllantirishdagi roli keng qamrovda tahlil qilindi. Metodologiyaning markazida tizimli yondashuv tamoyili turadi. Mazkur yondashuv orqali talabalarning mantiqiy fikrlash kompetentligini rivojlantirish pedagogik jarayonning ajralmas qismi sifatida qaraladi va kreativ pedagogika bu jarayonga innovatsion o'qitish strategiyasi sifatida tatbiq etiladi. Tizimli yondashuv talabalarda nafaqat alohida fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishni, balki ularning intellektual salohiyatini kompleks tarzda rivojlantirishni ham taqozo etadi.

Tadqiqotning metodologik asosini, shuningdek, faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv tashkil etadi. Bu yondashuvga ko'ra, talabalarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalari nazariy bilimlarni o'zlashtirish orqali emas, balki bevosita faoliyat jarayonida shakllanadi. Shu bois tajriba-sinov ishlarida interfaol metodlar, muammoli vaziyatlar yaratish, fikrlar xaritasi (mind mapping), "brainstorming" hamda tanqidiy fikrlash strategiyalaridan foydalanildi. Ushbu metodlar talabalarda mantiqiy izchillikni saqlagan holda ijodiy yondashuvni rivojlantirishga xizmat qildi. Shuningdek, metodologiyada kompetensiyaga asoslangan yondashuv ham muhim o'rin tutdi. Bu yondashuv asosida ta'limiy faoliyat natijalari talabalarning o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalarida emas, balki ularning amaliy faoliyatda samarali qo'llay olish qobiliyatida namoyon bo'lishi e'tiborga olindi. Shu maqsadda mantiqiy fikrlash kompetentligining mezon va ko'rsatkichlari aniqlanib, ular asosida tajriba-sinov ishlari olib borildi.

Tadqiqot jarayonida sifat va miqdoriy metodlarning uyg'unligi ta'minlandi. Sifat metodlari yordamida talabalarning fikrlash jarayoni, kreativ yondashuvlari, muammoli vaziyatlarni hal etishdagi faoliyati kuzatildi va tahlil qilindi. Miqdoriy metodlar esa test, so'rovnomalar va diagnostik topshiriqlar orqali olingan ma'lumotlarni statistik qayta ishlashda qo'llanildi. Natijada olingan ma'lumotlarning ishonchlilik va obyektivligi ta'minlandi. Tadqiqotning metodologik bazasini milliy va xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari tashkil etdi. Xususan, J. Guilford, E. Torrance, R. Sternberg, L. Vigotskiy, J. Dewey singari olimlarning kreativlik va mantiqiy tafakkur haqidagi nazariy qarashlari, shuningdek, A. Abduqodirov, M. O'rinboyeva, S. Raxmonqulov kabi o'zbek olimlarining kreativ pedagogika bo'yicha ishlari tadqiqotning nazariy–metodologik tayanchini mustahkamladi. Umuman olganda, tadqiqot metodologiyasi kreativ pedagogikaning nazariy konsepsiyalari, mantiqiy fikrlashni shakllantirish strategiyalari va ularning integratsiyasini ta'minlaydigan pedagogik texnologiyalar uyg'unligi asosida ishlab chiqildi. Bu yondashuv talabalarning nafaqat mantiqiy tafakkur ko'nikmalarini, balki mustaqil, ijodiy va tanqidiy fikrlash salohiyatini ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot jarayonida kreativ pedagogika asosida talabalarning mantiqiy fikrlash kompetentligini rivojlantirish bo'yicha olib borilgan tajriba-sinov ishlari bir nechta bosqichlarda amalga oshirildi. Dastlab, diagnostik bosqichda talabalar bilim va ko'nikmalarining dastlabki darajasi o'rganildi. Maxsus ishlab chiqilgan testlar, so'rovnomalar va kuzatuv natijalari shuni ko'rsatdiki, aksariyat talabalar nazariy bilimlarga ega bo'lsa-da, ularni amaliy vaziyatlarda qo'llashda qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Xususan, muammoli vaziyatlarni hal etishda izchil mantiqiy fikrlashning yetishmasligi, qaror qabul qilish jarayonida kreativ yondashuvning sustligi aniqlangan. Tajriba-sinov bosqichida kreativ pedagogik yondashuv asosida turli interfaol metodlar qo'llanildi. "Brainstorming", fikrlar xaritasi, muammoli vaziyat metodi va loyiha asosida o'qitish kabi metodlar talabalarning fikrlash faoliyatini faollashtirdi. Ushbu metodlar yordamida talabalar o'quv topshiriqlariga turli nuqtayi nazardan yondashishni, o'z fikrlarini izchil asoslab berishni hamda muammoni bir nechta yechim bilan hal qilishni o'rgandilar. Kuzatuv jarayonida talabalarning darslarda faolligi, mustaqil fikr bildirish qobiliyati va tanqidiy tahlil qilish ko'nikmalari sezilarli darajada oshgani kuzatildi.

Natijalarni miqdoriy tahlil qilish jarayonida tajriba guruhi va nazorat guruhi o'rtasida aniq farqlar kuzatildi. Tajriba guruhida mantiqiy fikrlash kompetentligini baholash mezonlari (izchillik, dalillilik, muammoli vaziyatni tahlil qilish, kreativ yondashuv) bo'yicha ijobiy o'sish qayd etildi. Masalan, tajriba guruhidagi talabalar nazariy bilimlarni amaliy topshiriqlarda qo'llashda yuqori ko'rsatkichlarga erishgan bo'lsa, nazorat guruhida bunday o'zgarishlar nisbatan past darajada bo'ldi. Sifat tahlillari shuni ko'rsatdiki, kreativ pedagogika asosida tashkil etilgan mashg'ulotlarda talabalar o'z bilimlarini faqat reproduktiv tarzda emas, balki produktiv tarzda qo'llay boshladilar. Ular yangi g'oyalar yaratish, muammoga yangicha yondashuvni taklif etish va fikrlarini dalillar bilan asoslashda faollik ko'rsatdilar. Bu esa ularning mantiqiy tafakkuri rivojlanishida muhim omil bo'ldi.

Tadqiqot natijalari, shuningdek, kreativ pedagogika nafaqat mantiqiy fikrlashni, balki talabalar shaxsiy kompetentligini ham rivojlantirishga xizmat qilishini ko'rsatdi. Talabalarda o'z fikrini erkin ifoda etish, boshqalar fikrini tinglash va tanqidiy baholash, guruhda hamkorlikda ishlash kabi ijtimoiy va kommunikativ kompetensiyalar ham shakllandi. Umuman olganda, tahlil va natijalar shuni tasdiqladiki, kreativ pedagogika asosida ta'lim jarayonini tashkil etish talabalarning mantiqiy fikrlash kompetentligini rivojlantirishda samarali metodik yondashuv hisoblanadi. Bu jarayon talabalarda nafaqat izchil va asosli fikrlash, balki muammoni kompleks ko'rib chiqish, yangicha yechim topish va ijodiy qarorlar qabul qilish qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi.

XULOSA

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kreativ pedagogika asosida ta'lim jarayonini tashkil etish talabalarning mantiqiy fikrlash kompetentligini rivojlantirishda muhim metodik asos hisoblanadi. Mantiqiy fikrlashning izchillik, dalillilik, tahliliy yondashuv va kreativ qaror qabul qilish kabi tarkibiy elementlari aynan kreativ pedagogik yondashuv orqali samarali shakllanishi mumkin. O'tkazilgan miqdoriy va sifat tahlillari shuni ko'rsatdiki, kreativ pedagogika shunchaki bilimlarni yetkazish vositasi emas, balki talabalarning mustaqil fikrlash, muammolarni hal etish, ijodiy yondashuvni qo'llash va o'z g'oyalarini dalillar bilan asoslab bera olish kabi muhim kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan qaraganda, kreativ pedagogika va mantiqiy fikrlash kompetentligining uzviy bog'liqligi isbotlandi.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim jarayonida kreativ pedagogik yondashuvdan foydalanish talabalarni nafaqat akademik bilimlar bilan, balki ularni amaliy faoliyatga tatbiq etish, yangicha qarashlar asosida tahlil qilish va ijodiy qarorlar ishlab chiqishga tayyorlaydi. Bu esa bo'lajak mutaxassislarining nafaqat mantiqiy fikrlash, balki kasbiy va ijtimoiy kompetentligini ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Abduqodirov, A. (2015). Kreativ pedagogika: o'quvchi va talabaning intellektual-ijodiy salohiyatini faollashtirishga qaratilgan innovatsion ta'lim tizimi. *Pedagogika va Innovatsiya*, 3(1), 45–52.
2. Achilov, O. I., & G'aniyeva, M. N. (2022). Methodology for developing logical thinking in preschool children through pedagogical educational resources. *American Journal of Open University Education*.
3. Urdashev, A. (2025). Interaction of logical thinking and creative thinking. *Journal of Uzbekistan's Development and Research*, 60–62.
4. Nafasov, G', Sayfullayev, B., & Nazirov, Q. (2024). Development of logical thinking ability of students based on creative approaches in mathematics lessons. *News of the NUUZ*, 1(1.5.2), 144–146.
5. Sayfiddinova, J. Z. (2023). Improving the skill of logical thinking of primary school pupils through the technology of problem learning in the process of literary education. *International Journal of Language Learning and Applied Linguistics*, 2(7), 77–82.
6. Toshpulatova, D. (2019). Development of students' logical thinking abilities [PhD thesis]. Samarkand.
7. Usubovich, O. O., & Ne'matillaevna, Z. D. (2022, April). Interfaol usullardan foydalanib talabalarni mustaqil fikrlashga undovchi ta'lim. In *E Conference Zone* (pp. 101–105).
8. Bektemirova, Z., Usmonov, M. T., & Akhmatova, D. (2023). Methods of developing students' logical thinking in primary education. *Science Time Journal*.
9. Akmaldinova, F. (2024). Pedagogical technology for the development of logical thinking of students when studying reasoning as a functional-semnical type of speech. *News of the NUUZ*.
10. Tukhtasinov, D., & Abdullayeva, S. (2023). Developing creative thinking through primary school students solving problems. *European Multidisciplinary Journal of Modern Science*.
11. Koray, O., & Koksai, M. S. (2009). The effect of creative and critical thinking-based laboratory applications on creative and logical thinking abilities of prospective teachers. *Asia-Pacific Forum on Science Learning and Teaching*, 10(1).
12. Gabora, L. (2016). The neural basis and evolution of divergent and convergent thought.
13. Morin, S., Robert, J.-M., & Gabora, L. (2016). Creativity training for future engineers: Preliminary results from an educative experience.
14. Sovden, P., Pringle, A., & Gabora, L. (2014). The shifting sands of creative thinking: Connections to dual process theory.
15. Foreign study on creative and logical thinking in adolescents. (1979). *Research in Science Education*, 9, 177–182.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.